
TUMAN HOKIMI INVESTORLAR BILAN UCHRASHDI

Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev Turkiyaning "Altindag'" trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish korxonasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv davomida tumanning investision salohiyati, tumanda trikotaj yo'nalishidagi mavjud imkoniyat va bozor sharoitlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, bo'sh turgan yer uchastkalari va mamlakatda investorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar to'g'risida fikrlar bildirib o'tildi.

Suhbat so'ngida Turkiyalik investorlar tumanda yangi loyihani amalga oshirish bo'yicha qiziqish bildirdilar.

2024-08-22 17:15:31